

SHOIRA SHAMS IJODIDA MA'NO KO'CHISH USULLARI

Xo'janiyazova Barno Rustam qizi

UrDU magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11318373>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shoira Shams ijodidagi ma'no ko'chish turlari xususida mulohazalar olib borildi. Shoira Shamsning "Javrikim jonim o'tar" nomli to'plamidagi bir nechta g'azallari tahlil qilinib, ulardagi metafora, metonimiya va sinekdoxaga misollar topildi. Bu g'azallardagi shoiraning qalb izhorlari tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, ma'no ko'chishi, obraz, timsol.

METHODS OF TRANSFERRING MEANING IN THE CREATION OF POET SHAMS

Abstract. In this article, comments were made about the types of transfer of meaning in the work of the poetess Shams. Several ghazals of the poetess Shams from the collection "Javrikim jonim o'tar" were analyzed and examples of metaphor, metonymy and synecdoche were found in them. The emotional expressions of the poetess in these ghazals were analyzed.

Key words: metaphor, metonymy, synecdoche, task, transfer of meaning, image, symbol.

МЕТОДЫ ПЕРЕДАЧИ СМЫСЛА В ТВОРЧЕСТВЕ ПОЭТОВ-ШАМОВ

Аннотация. В данной статье были даны комментарии о типах передачи смысла в творчестве поэтессы Шамс. Проанализированы несколько газелей поэтессы Шамс из сборника «Жавриким йоним о'тар» и найдены в них примеры метафоры, метонимики и синекдохи. Проанализированы эмоциональные проявления поэтессы в этих газелях.

Ключевые слова: метафора, метонимия, синекдоха, задача, передача смысла, образ, символ.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bundan yuz yil muqaddam buyuk o'zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o'g'li, Cho'lpon, Adabiyot yashasa, millat yashar!" degan otashin da'vat bilan maydonga chiqqan edi. Hayot va tarix sinovlaridan o'tgan teran ma'noli bu so'zlar bugun ham o'z ahamiyati va qimmatini yo'qotgan emas. Darhaqiqat, adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi."¹ Bugungi kunda mamlakatimizda adabiyotga, san'atga e'tibor beqiyosdir. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalarini o'rGANISH, tahlil qilish birlamchi masalaga aylandi.

¹ <https://xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>

Mumtoz shoiralar ijodiga nazar tashlar ekanmiz, ularda mavjud davr muammolari, ayollarning jamiyatdagi roli e'tirof etilgan. Shariat ahkomlari hukmron davrda xotin-qizlarga bo'lgan munosabat zamona zayli bilan o'zgargan.

Xotin-qizlarga bo'lgan munosabatlarni o'zgartirish ularning xo'rliklar va tazyiqlarga uchrashi kabi muammo va ularning yechimlari shoiralar ijodida lirika misolida ifodalab berilgan. Mumtoz shoiralar jamiyatda ayollarning ham o'rni bo'lishi ularning ham orzu-havaslari borligini eslatib o'tishgan. Ayollar bilan erkaklar teng bo'lgan jamiyat, ayollarning ham bilim olish, kasb tanlash erkinligi keladigan zamona kelishiga ishongan, umid qilgan va shunga qarab harakat qilgan, turli mavzularda she'rler yozishgan, g'azallar bitishgan.

Bugungi kunda ham yangi davr g'azalnavisligida haqiqiy o'zining o'rniga ega, mumtoz g'azallariyu she'rleri bilan o'zbek kitobxonlari ko'ngidan joy olgan shoira bu - Shoira Shamsdir.

“Qoshlari kamon, kipriklari o'q, lablari g'uncha, tishlari inju, oy yuzli, gulyuz, pariro'y” bu kabi gozal so'zlarni faqatgina o'zbek adabiyotida ko'rishingiz mumkin. Chunki bu so'zlardan foydalanish bu kabi uslub o'zbek shoirlariyu, o'zbek yozuvchilariga xosdir. So'zlarda ikki xil ma'no turi mayjud bo'lib, birinchisi o'z ma'no, ikkinchisi esa ko'chma ma'no deb yuritiladi. Birinchi ma'no turiga keladigan bo'lsak, o'z ma'no so'zlarning yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir manoni anglatsa bu o'z ma'noli so'z deyiladi. Agar yakka holdagi ma'nosi bilan matn ichidagi ma'nosи ikki xil bo'lsa unda bu so'z matn ichida ko'chma ma'noda qo'llanayotgan bo'ladi. Qanday qilib so'zning o'z ma'noda va ko'chma ma'noda qo'llanilayotganini topishimiz mumkin degan savolga biz shunday deb javob beramiz: bu juda onson matn ichidagi so'zlarni yakka holda qo'llab ko'ramiz bunda yuqorida aytganimizdek matn ichidagi so'z yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir xil ma'no anglatsa o'z ma'noda qo'llanilayotgan yoki yakka holda boshqa ma'no anglatsa ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi.

Bugun tahlil qilmoqchi bo'lganimiz Shoira Shams ijodidagi, uning she'r-u g'azallaridagi ma'no ko'chish usullaridir.

Ma'no ko'chish usullari to'rt xil. Ular:

1. Metafora;
2. Metonimiya;
3. Sinekdoxa;
4. Vazifadoshlik.

Bular ma'no ko'chish usullarining ketma-ketligi. Bundan tashqari ma'no ko'chishining kinoya, tag ma'no degan turlari ham mavjud.

Metafora - metaphora “ko’chirma” demakdir. Predmet, narsa, hodisalarning tashqi o’xshashiligiga, shakliy, ichki belgilariga asoslanib ma’no ko’chishiga metafora deyiladi. Ko’proq tashqi o’xshashlikka metafora deyiladi. Metafora usulida nom ko’chishi narsa va hodisalar o’rtasida nisbiy o’xshashlikka ko’ra bo’ladi va ularning rangi, shakli, harakati ikkinchi shunday predmet belgisi bo’lgan nomini oladi. Bu usul bilan ma’no ko’chishi uchun umumiyligi tushuncha saqlanadi. Misol uchun “qora niyat” bunda qora so’zida ma’no ko’chishi kuzatilyapti. “Qora qalam” bo’lganda o’z ma’no bo’lardi, “qora rang” bilan ichidagi yomon niyatni o’xhatganligi sababli metafora usulida ma’no ko’chyapti.²

Endi esa yuqoridagilardan xulosa qilgan holda Shoira Shams ijodidagi metaforalarni kuzatamiz:

Yaraldim jism-u jonidin, sabog’imdir jahonidan,

Dilimning ziynati ul zargaridur otayu onam.

Yashaman poyini doim ko’zimga to’tiyo aylab,

*Bu ko’nglim mehr ganji javharidur otayu onam.*³

Shoira Shamsning “Otayu onam” nomli g’azalida shoiraning otasi va onasiga nisbatan muhabbati, hurmati va ehtiromi e’tirof etilgan. Shoira ota va onasining jismidan, jonidan yaralganini, ular shoiraga olam sabog’ini bergenini, dilining oltin-gavharlarining ona-onasi zargari ekanligini she’rda go’zal baytlar orqali isbotlaydi shoira go’yo. ularning poyini ya’ni “oyog’i”ni ko’ziga to’tiyo aylaydi, “mehr ganjining ota-ona gavhari” ekanligini metafora orqali ifodalaydi.

Metoforaga namunalar:

Mani ishqing bila ovvora qilding,

*Ko’zim yoshini ham favvora qilding.*⁴

Yana:

Tanim Jayhun kabi to’lg’ondi oxshom,

*Ko’zimni ufqdek xunbora qilding.*⁵

Metanomiya “meta” - qayta, “anoma” - nom deganidir. Predmet narsa va hodisalarning bog’lanishidan birining nomini ikkinchisiga ko’chirish tufayli yuzaga keladigan ma’no ko’chishi metonimiya deyiladi. Bunday ma’no ko’chishiga tashqi va ichki o’xshashliklar hisobga olinmaydi balki, so’z ma’nolarining bir-biriga bog’liqligi hisobga olinadi.⁶

² O’zbek tili stilistikasi. T. : O’qituvchi, 1983, -B. 246.

³ Shoira Shams. Javrikim jondin o’tar. She’rlar, badiha. Urganch. 2018-yil. 8-bet.

⁴ Shoira Shams. Javrikim jondin o’tar. She’rlar, badiha. Urganch. 2018-yil. 13-bet.

⁵ Shoira Shams. Javrikim jondin o’tar. She’rlar, badiha. Urganch. 2018-yil. 13-bet.

⁶ O’zbek tili stilistikasi. T. : O’qituvchi, 1983, -B. 145.

Shoira Shams ijodini quyidagi metonimik so'zlar bezab turibdi:

Ko'zing taftiga tushsa ikki nargis,

*Erib mujgon uza ashki ravanom.*⁷

Shoiraning "Muhabbatdin" radifli g'azalida "Ikki nargis" birikmasi orqali metonimik qator yuzaga kelgan. Bu yerda ikkita ko'zni "ikkita nargis"ga o'xshatib, qayta nomlaydi.

Gavharikim nilufar uzra tushub,

*Qolgan ul munchoq kibi marjon boqur.*⁸

Shoirning "Jayron boqur" radifli g'azalida "Nilufar" so'zi orqali metonimiya hodisasi yuzaga kelgan. Bu misralarda nilufar gulga tushgan yomg'ir tomchisini munchoqqa o'xshatgan.

Sinekdoxa "sinekdohe" – "birga anglamoq" deganidir. Butun orqali qism, qism orqali butunni ifodalash asosida so'zlardagi ma'no ko'chish usuli sinekdoxa deyiladi. Masalan: "qo'limni kesib oldim" deganda qo'limni deb barmog'ini nazarda tutmoqda, barmoq qo'lning qismi bo'lganligi uchun ya'ni butun orqali qismni anglatmoqda, "tuyoqlarni ko'paytiramiz" bu gapda esa tuyaq deb hayvonlarni nazarda tutmoqda, tuyaq hayvonning qismi bo'lganligi uchun qism orqali butunni nazarda tutmoqda, yoki bo'lmasa "eshikka kiring, mehmon, bir chaqchaqlashamiz" bu gapda ma'nosи ko'chgan so'z "eshik" so'zi bo'lib, bu gapda "eshikka kiring" deb uyini nazarda tutmoqda. Eshik uyning qismi bo'lganligi uchun bunda ham qism orqali butun nazarda tutilmoqda.⁹

Ishq poyida xazondur bu ko'ngil,

*Ul guliruxsor esa xandon boqur.*¹⁰

Shoiraning "Jayron boqur" radifli g'azalida "Ishq poyida" so'zi sinekdoxa yaratmoqda.

Ushbu misralarda ishq sababli xazonga aylangan ko'ngil tasvirlangan va yorni guliruxsor deya ta'riflamoqda.

o'rnida aytishimiz mumkinki, Shoira Shams ijodidagi g'azallar o'zining jozibadorligi, xalq tiliga yaqinligi bilan, kitobxon e'tiborini o'ziga jalb qilishi bilan ajralib turadi. Tahsil qilmoqchi bo'lganimiz, shoira ijodidagi metofora, metonomiya, sinekdoxalar g'azalning o'qishliligini, sodda va ravon usulda ifodalanganligini e'tirof etadi.

REFERENCES

1. <https://xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>

⁷ Shoira Shams. Javrikim jondin o'tar. Sheqrlar, badiha. Urganch. 2018-yil. 15-bet.

⁸ Shoira Shams. Javrikim jondin o'tar. Sheqrlar, badiha. Urganch. 2018-yil. 28-bet.

⁹ O'zbek tili stilistikasi. T.: O'qituvchi, 1983, -B. 188.

¹⁰ Shoira Shams. Javrikim jondin o'tar. Sheqrlar, badiha. Urganch. 2018-yil. 22-bet.

2. O'zbek tili stilistikasi. T.: O'qituvchi, 1983, -B. 246.
3. Shoira Shams. Javrikim jondin o'tar. She'rlar, badiha. Urganch. 2018-yil. 8-bet.
4. Ibragimova, Z., & Ibragimova, U. (2020). PROFESSIONAL WORDS IN THE UZBEK DIALECTS OF KARAKALPAKSTAN WHICH CAN BE FOUND IN OTHER UZBEK DIALECTS. In Recent Scientific Investigation (pp. 69-72).
5. Zamira, I., & Fazilat, M. (2022). The history of the origin of nicknames and their distinctive features in dialects
6. Ibragimova, Z. (2022). THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOLERS AND THE PSYCHOLOGICAL DESCRIPTION OF THEIR ACTIVITIES. Science and Innovation, 1(5), 416-420.